

**O'QUV MASHG'ULOTLARIDA INTERAKTIV METODLAR ORQALI
PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH**

Umarova Feruzabonu Bobir qizi

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
umarovaferuza997@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16636385>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda interaktiv o'qitish metodlarining o'rni tahlil qilingan. Interaktiv metodlar orqali talabalarda kasbiy muloqot madaniyati, axloqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalari hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Muallif interaktiv metodlarning samaradorligi, ularning o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikni kuchaytirishdagi roli va pedagogik madaniyatni amaliy shakllantirishdagi ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, maqolada interaktiv metodlar turlariga qisqacha tavsif berilib, ularni o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlardan samarali foydalanish pedagogik jarayonni insonparvarlik ruhida tashkil etishga, talabalarning kasbiy va ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik madaniyat, interaktiv metodlar, bo'lajak o'qituvchi, o'quv mashg'uloti, kasbiy kompetensiya, muloqot madaniyati, axloqiy tarbiya, ta'lim texnologiyalari.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchi shaxsini har tomonlama yetuk va madaniyatli kadr sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish ayni muddaodir.

Pedagogik madaniyat – bu o'qituvchining kasbiy axloqi, muloqot madaniyati, didi, nutq madaniyati, tashqi ko'rinishidagi tartib-intizom, shuningdek, ta'lim berish jarayonidagi estetik va axloqiy yondashuvlarini o'z ichiga olgan kompleks tushunchadir. Bu madaniyat talaba-yoshlarda faqat nazariy bilim orqali emas, balki amaliy faoliyat, ayniqsa, interaktiv usullar orqali samarali shakllanadi.

Interaktiv metodlar – bu o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etuvchi, ularning fikrlashi, muloqotda bo'lishi va muammolarni hal etish malakalarini rivojlantiruvchi metodlardir. Ular o'zaro hurmatga asoslangan muhit yaratishga xizmat qiladi va talabalarda pedagogik madaniyatning ajralmas jihatlari bo'lgan



sabr-toqat, eshitish madaniyati, murosaga kelish, ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Masalan, “Rolga kirish”, “Bahs-munozara”, “Blits so’rov”, “Aqliy hujum”, “Keys-stadi” kabi metodlar orqali talabalar turli pedagogik vaziyatlarda qanday madaniy yondashuvlar zarurligini amalda sinab ko’rishadi. Bu esa ularni real hayotdagi pedagogik muammolarni to’g’ri va etuk tarzda hal qilishga o’rgatadi.

Shuningdek, interaktiv mashg’ulotlarda talabalarning o’zaro fikr almashuvi, guruhiiy ishlari va o’qituvchining yo’naltiruvchi roli orqali pedagogik madaniyatni shakllantirishda subyekt-subyektli munosabat vujudga keladi. Bu esa o’qituvchini buyruqboz emas, balki sherik sifatida ko’rishga yordam beradi. Interaktiv metodlarning yana bir muhim jihati – ular orqali aks ettiruvchi (refleksiv) fikrlash rivojlanadi. Talaba faqat bilim olish bilan cheklanmay, o’z xatti-harakatlariga tanqidiy qaraydi, o’zini o’qituvchi rovida tasavvur qiladi va shu asosda pedagogik madaniyatining ichki mexanizmlarini anglay boshlaydi.

Tajribalar shuni ko’rsatmoqdaki, o’quv mashg’ulotlarida interaktiv metodlardan maqsadli foydalanish:

- pedagogik madaniyatning amaliy namoyon bo’lishiga sharoit yaratadi;
- kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradi;
- o’qituvchilik kasbiga nisbatan hurmat, e’tibor va ijobiy munosabatni mustahkamlaydi.

Shu bois, oliy ta’lim tizimida interaktiv metodlarni keng joriy qilish orqali bo’lajak o’qituvchilarning madaniy, axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda interaktiv o’qitish metodlarining roli beqiyosdir. Bunday metodlar nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda kasbiy muloqot, axloqiy yondashuv, sabr, hamkorlik, o’zini tutish madaniyati kabi muhim fazilatlarni rivojlantiradi. Interaktiv yondashuvlar orqali talaba o’zini o’qituvchi sifatida sinab ko’radi, real pedagogik vaziyatlarni baholaydi va ularga madaniy, ijtimoiy va axloqiy asosda yondashishni o’rganadi. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonida interaktiv metodlarni keng qo’llash, ularni tizimli va maqsadli tashkil etish orqali bo’lajak pedagoglarning kasbiy va madaniy tayyorgarligini yanada mustahkamlashi lozim. Bu esa zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, yuqori madaniyatli o’qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “Ta’lim to’g’risida” Qonuni 2020-yil 23-sentyabrdagi O’RQ-637-son





2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son
4. Axmedova N. Sh., Yo'ldosheva M. S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. To'xtayev N. T. Pedagogik madaniyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Qodirova N., Rustamova M. Ta'limda interfaol metodlardan foydalanish usullari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Abdullayeva N. A. Zamonaviy dars: interaktiv metodlar asosida tashkil etish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
8. G'ofurov K. G'. Pedagogik faoliyatda madaniyat va axloqiy qadriyatlar. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2020.
9. Vygotsky L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Akademkniga, 2005.
10. Dewey J. Demokratiya va ta'lim. – Toshkent: Ma'naviyat
11. www.ziynet.uz – O'zbekiston ta'lim portali (maqolalar, metodik tavsiyalar).
12. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.

